



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING  
BUYRUG'I**

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga to'liq amal qilinishini samarali tashkil etish haqida**

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga to'liq amal qilinishi, barcha turdag'i ish hujjatlarining lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuritilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldagi 61-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. 2023-yil 1-yanvardan boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (keyingi o'rinnarda - vazirlik) markaziy apparati va uning tuzilmalarida barcha turdag'i ish hujjatlari, idoralararo yozishmalar va boshqa axborot matnlari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuritilishi yo'lga qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish maqsadida Vazir o'rinnbosarlari, tarkibiy bo'linmalar, vazirlik tasarrufidagi tashkilot, agentlik va muassasalar rahbarlari hamda hududiy boshqarmalar boshliqlari faoliyat yo'nalishlari doirasida davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga to'liq amal qilinishini ta'minlasin va nazoratga olish choralarini belgilasin.

3. Quyidagilar:

a) Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Tog'ayeva) – tashkiliy hujjatlar va xodimlar faoliyatiga doir ma'lumotlar;

Axborot xizmati (D.Sobirova) – vazirlik va hududiy boshqarmalarning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot matnlari;

Moliya departamenti (I.Siradjev), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) – moliyaviy va buxgalteriya hujjatlarining to'liq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuritilishini;

b) Juridik boshqarma (X.Asrarov), Vazir maslahatchisi (N.Mamaraimova) – normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida", "Davlat tili haqida"gi qonunlarga muvofiqligi, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida taqdim etilishi va o'rnatilgan tartibda muhokamaga qo'yishini ta'minlasin.

4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini o‘rganish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ishchi guruh (N.Mamaraimova) o‘rganishlar jarayonida:

hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning ish yuritish hujjatlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiyl o‘rta ta’lim maktablaridagi tashqi va ichki yozuvlar, ko‘rgazmali boshqa axborot matnlarining davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga mosligi;

aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish yuzasidan hudud mas’ullari ishtirokida muhokama etilishi;

hududiy boshqarmalar boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilot va muassasalar rahbarlari, shuningdek, tizimdagি mas’ul xodimlarning savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi;

o‘rganishlar natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni o‘rnatilgan tartibda Vazirga taqdim etilishini ta’milasini.

6. Devonxona (D. Isxakova) mazkur buyruqni o‘rnatilgan tartibda vazirlik tasarrufidagi barcha tashkilot va muassasalarga, hududiy boshqarmalarga yetkazilishini amalga oshirsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,  
2023-yil “4”- avgust,  
231-son

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining  
2023-yil “4”- avgustdagi 231-son buyrug‘iga  
**ILOVA**

**Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi  
qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini o‘rganish bo‘yicha doimiy faoliyat  
yurituvchi ishchi guruh  
TARKIBI**

1. N.Mamaraimova – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri maslahatchisi, ishchi guruh rahbari
2. N.Sayfitdinov – Maktabgacha ta‘lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi
3. (Kelishuv asosida) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti xodimi

Izoh: ish hajmini inobatga olgan holda, ishchi guruh tarkibiga o‘zgartirish kiritish va hududlarga chiqish Vazir va vazir o‘rinbosarlarining topshirig‘iga muvofiq amalga oshiriladi.